




## XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 49 955 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 26 428 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 52,9 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (48,3 %), savdo (17,5 %), sanoat (10,1 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)





**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2024- yil 1- iyul holatiga)**

|  | Ro'yxatga olingan |                        | Faoliyat ko'rsatayotgan |                        |
|--|-------------------|------------------------|-------------------------|------------------------|
|  | birlik            | jamiga nisbatan foizda | birlik                  | jamiga nisbatan foizda |
| <b>Jami</b>  | <b>49 955</b>     | <b>100,0</b>           | <b>26 428</b>           | <b>100,0</b>           |
| <i>shu jumladan:</i>                               |                   |                        |                         |                        |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 24 117            | 48,3                   | 10 704                  | 40,5                   |
| sanoat   | 5 051             | 10,1                   | 2 433                   | 9,2                    |
| qurilish   | 2 516             | 5,0                    | 1 299                   | 4,9                    |
| savdo  | 8 725             | 17,5                   | 5 302                   | 20,1                   |
| tashish va saqlash                                 | 689               | 1,4                    | 354                     | 1,3                    |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 2 046             | 4,1                    | 1 171                   | 4,4                    |
| axborot va aloqa                                   | 407               | 0,8                    | 229                     | 0,9                    |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 421               | 0,8                    | 341                     | 1,3                    |
| boshqa faoliyat turlari                            | 5 983             | 12,0                   | 4 595                   | 17,4                   |

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 31 841 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 18 834 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 59,1 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,8 %) sanoat (15,9 %) va qurilish (7,9 %) sohalariga to'g'ri keldi.




**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2024- yil 1- iyul holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

|  | Ro'yxatga olinganlar |                        | Faoliyat ko'rsatayotganlar |                        |
|--|----------------------|------------------------|----------------------------|------------------------|
|  | birlik               | jamiga nisbatan foizda | birlik                     | jamiga nisbatan foizda |
| <b>Jami</b>  | <b>31 841</b>        | <b>100,0</b>           | <b>18 834</b>              | <b>100,0</b>           |
| <i>shu jumladan:</i>                               |                      |                        |                            |                        |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 6 003                | 18,8                   | 3 110                      | 16,5                   |
| sanoat   | 5 051                | 15,9                   | 2 433                      | 12,9                   |
| qurilish   | 2 516                | 7,9                    | 1 299                      | 6,9                    |
| savdo  | 8 725                | 27,4                   | 5 302                      | 28,2                   |
| tashish va saqlash                                 | 689                  | 2,2                    | 354                        | 1,9                    |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 2 046                | 6,4                    | 1 171                      | 6,2                    |
| axborot va aloqa                                   | 407                  | 1,3                    | 229                        | 1,2                    |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 421                  | 1,3                    | 341                        | 1,8                    |
| boshqa faoliyat turlari                            | 5 983                | 18,8                   | 4 595                      | 24,4                   |

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax shahri 8 523 ta (26,8 %), Sharof Rashidov 4 386 ta (13,8 %), G'allaorol 2 920 ta (9,2 %) va Zomin 2 744 ta (8,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**



Faoliyat koʻrsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-iyul holatiga 18 834 tani tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,0 foizga (1 428 ta) kamaygan. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha boʻldi: savdo – 28,2 foiz, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi – 16,5 foiz, sanoat – 12,9foiz, qurilish – 6,9 foiz, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar – 6,2 foiz, tashish va saqlash – 1,9 foiz, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish – 1,8 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, boshqa turlari – 24,4 foiz.

**Hududlar kesimida**

|                        |        |                   |       |
|------------------------|--------|-------------------|-------|
| Jizzax viloyati        | 18 834 | Jizzax shahri     | 4 912 |
| Arnasoy tumani         | 738    | Zarbdor tumani    | 1 017 |
| Baxmal tumani          | 1 375  | Mirzachoʻl tumani | 693   |
| Gʻallaorol tumani      | 1 741  | Zafarobod tumani  | 604   |
| Sharof Rashidov tumani | 2 418  | Paxtakor tumani   | 1 018 |
| Doʻstlik tumani        | 786    | Forish tumani     | 1 369 |
| Zomin tumani           | 1 656  | Yangiobod tumani  | 507   |



Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning  
hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(2024-yil 1-iyul holatiga, birlik)

|                        | 2024- yil<br>1-iyul holatiga<br>ro'yxatga<br>olinganlar soni | shuningdek, 2024- yil yanvar-iyun<br>oylari davomida: |               |
|------------------------|--|---|---------------|
|                        |  | yangi tashkil<br>etilganlar                           | tugatilganlar |
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>49 955</b>  | <b>2 499</b>  | <b>969</b>    |
| <i>shahar:</i>         |  |   |               |
| Jizzax                 | 8 596  | 566   | 193           |
| <i>tumanlar:</i>       |  |   |               |
| Arnasoy                | 2 909  | 153   | 42            |
| Baxmal                 | 4 233  | 201   | 66            |
| G'allaorol             | 5 589  | 266   | 103           |
| Sharof Rashidov        | 6 658  | 275   | 95            |
| Do'stlik               | 2 219  | 79  | 39            |
| Zomin                  | 4 821  | 217   | 78            |
| Zarbdor                | 3 920  | 172   | 66            |
| Mirzacho'l             | 2 460  | 79  | 48            |
| Zafarobod              | 2 218  | 80  | 46            |
| Paxtakor               | 2 519  | 133   | 38            |
| Forish                 | 2 705  | 173   | 125           |
| Yangiobod              | 1 108  | 105   | 30            |

2024- yilning yanvar–iyun oylarida jami 2 499 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 2 442 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 566 tasi, yoki 22,6 %) hamda Sharof Rashidov (275 tasi, yoki 11,0 %), G'allaorol (266 tasi, yoki 10,6 %) Zomin (217 tasi, yoki 8,7 %), Baxmal (201 tasi, yoki 8,0 %), Forish (173 tasi, yoki 6,9 %), Zarbdor (172 tasi, yoki 6,9 %), Arnasoy (153 tasi, yoki 6,1 %), Paxtakor (133 tasi, yoki 5,3 %), Yangiobod (105 tasi, yoki 4,2 %), Zafarobod (80 tasi, yoki 3,2 %), Do'stlik (79 tasi, yoki 3,2 %) va Mirzacho'l (79 tasi, yoki 3,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



**Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


|                        | 2024- yil<br>1- iyul holatiga<br>ro'yxatga<br>olinganlar | shuningdek, 2024- yil yanvar-iyun<br>oylari davomida: |               |
|------------------------|--|---|---------------|
|                        |  | yangi tashkil<br>topganlar                            | tugatilganlar |
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>31 841</b>  | <b>2 481</b>  | <b>920</b>    |
| <i>shahar:</i>         |  |   |               |
| Jizzax                 | 8 523  | 566   | 192           |
| <i>tumanlar:</i>       |  |   |               |
| Arnasoy                | 1 274  | 152   | 39            |
| Baxmal                 | 2 223  | 201   | 59            |
| G'allaorol             | 2 920  | 263   | 95            |
| Sharof Rashidov        | 4 386  | 275   | 89            |
| Do'stlik               | 1 297  | 75  | 38            |
| Zomin                  | 2 744  | 217   | 76            |
| Zarbdor                | 1 644  | 166   | 58            |
| Mirzacho'l             | 1 259  | 79  | 45            |
| Zafarobod              | 1 035  | 80  | 40            |
| Paxtakor               | 1 592  | 132   | 37            |
| Forish                 | 2 134  | 172   | 123           |
| Yangiobod              | 810  | 103   | 29            |

2024- yilning yanvar-iyun oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 2 481 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 2 422 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 566 tasi, yoki 22,8 %), Sharof Rashidov (275 tasi, yoki 11,1 %), G'allaorol (263 tasi, yoki 10,6 %) va Zomin (217 tasi, yoki 8,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- iyul holatiga 28 342 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 871 ta, oilaviy korxonalar 2 778 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 20 246 ta, aksionerlik jamiyatlari 21 tani tashkil etdi.



**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 26,5 foizi savdo, 25,1 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 25,1 foizi sanoat va 3,2 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohaslariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 969 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.**

2024- yilning 1- iyul holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 170 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapital ishtirokida 68 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 45 ta, Rossiya Federatsiyasi 40 ta, Buyuk Britaniya 8 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 9 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.






**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 92 tasi qo'shma korxonalar, 78 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

2023-2024- yillar yanvar-iyun oylari holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 9 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,0 foizga o'sgani kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 2 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
(2024- yil I-iyul holatiga, birlikda)

|                        | 2024- yil<br>I-iyul holatiga<br>faoliyat<br>ko'rsatayotganlar<br>soni | shundan               |                       |
|------------------------|---|-----------------------|-----------------------|
|                        |   | qo'shma<br>korxonalar | xorijiy<br>korxonalar |
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>170</b>  | <b>92</b>             | <b>78</b>             |
| <i>shahar:</i>         |   |                       |                       |
| Jizzax                 | 61  | 30                    | 31                    |
| <i>tumanlar:</i>       |   |                       |                       |
| Arnasoy                | 5   | 2                     | 3                     |
| Baxmal                 | 6   | 4                     | 2                     |
| G'allaorol             | 12  | 5                     | 7                     |
| Sharof Rashidov        | 19  | 10                    | 9                     |
| Do'stlik               | 6   | 2                     | 4                     |
| Zomin                  | 12  | 8                     | 4                     |
| Zarbdor                | 2   | 1                     | 1                     |
| Mirzacho'l             | 2   |                       | 2                     |
| Zafarobod              | 8   | 3                     | 5                     |
| Paxtakor               | 11  | 9                     | 2                     |
| Forish                 | 21  | 15                    | 6                     |
| Yangiobod              | 5   | 3                     | 2                     |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 61 ta (umumiy miqdordagi ulushi 35,9 %), Forish tumanida 21 ta (12,4 %), Sharof Rashidov tumanida 19 ta (11,2 %), Zomin tumanida 12 ta (7,1 %), G'allaorol tumanida 12 ta (7,1 %) hamda Zafarobod tumanlarida 8 ta (4,7 %) ni tashkil etadi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi  
(2024- yil 1-iyul holatiga)

|  | Korxonalar soni,<br>birlik | Jamiga nisbatan,<br>% da |
|--|----------------------------|--------------------------|
| <b>Jami</b>  | <b>170</b>                 | <b>100,0</b>             |
| <i>shu jumladan:</i>                               |                            |                          |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 16                         | 9,4                      |
| Sanoat   | 95                         | 55,9                     |
| Qurilish   | 10                         | 5,9                      |
| Savdo  | 22                         | 12,9                     |
| Tashish va saqlash                                 | 5                          | 2,9                      |
| Yashash va ovqatlanish                             | 3                          | 1,8                      |
| Axborot va aloqa                                   | 8                          | 4,7                      |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1                          | 0,6                      |
| Boshqa faoliyat turlari                            | 10                         | 5,9                      |


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 170 ta korxonaning 95 tasi (55,9 %) sanoat, 22 tasi (12,9 %) savdo, 16 tasi (9,4 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 10 tasi (5,9 %) qurilish, 8 tasi (4,7 %) axborot va aloqa, 5 tasi (2,9 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,8 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 10 tasi (5,9 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)

2024- yil 1-iyul holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23 150 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 93,6 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 172 tasi (54,1 %) Jizzax shahriga, 2 976 tasi (47,5 %) Sharof Rashidov, 2 580 tasi (48,7%) G'allaorol va 2 317 tasi (51,7 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23 150 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 10 658 tasi (46,0 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 295 tasi (22,9 %) savdo, 2 401 tasi (10,4 %) sanoat, 1 280 tasi (5,5 %) qurilish 1 166 tasi (5,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 354 tasi (1,5 %) tashish va saqlash, 253 tasi (1,1 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 213 tasi (0,9 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 533 tasi (1,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida yangi 2 422 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2023- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 115,3 foizga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (549 ta), Sharof Rashidov (265 ta), G'allaorol (259 ta), Zomin (214 ta), Baxmal (197 ta), Forish (171 ta) va tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Zarbdor (162 ta), Arnasoy (151 ta), Paxtakor (128 ta), Yangiobod (100 ta), Mirzacho'l (78 ta), Zafarobod (75 ta) hamda Do'stlik(73 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (661 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (606 ta), sanoat (626 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (174 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (162 ta) hissalariga to'g'ri keldi. Eng kam esa, qurilish (79 ta), axborot va aloqa (67 ta), tashish va saqlash (21 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (26 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1- iyul holatiga 2 778 tani tashkil etdi, ulardan 1 484 tasi yoki 53,4 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 515 tasi yoki 34,7 foizi sanoat, 454 tasi yoki 30,6 foizi savdo, 239 tasi yoki 16,1 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 150 tasi yoki 10,1 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13 tasi yoki 0,9 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 6 tasi yoki 0,4 foizi axborot va aloqa, 11 tasi yoki 0,7 foizi qurilish, 3 tasi yoki 0,2 tashish va saqlash hamda 93 tasi yoki 6,3 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.



### Xususiy korxonalar soni (2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2024- yil 1- iyul** holatiga ko'ra 4 871 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 86 taga yoki 17,2 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2 486 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 533 taga yoki 15,9 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 205 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 41 taga yoki 8,4 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2024- yil 1- iyul** holatiga ko'ra 20 246 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 167 taga yoki 18 079 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 427 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 755 taga yoki 12 182 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 903 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 273 taga yoki 78,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

